

## ERKIN VOHIDOV G‘AZALLARIDA IRSOLI MASAL VA AQD SAN’ATI

**Shomurodova Sitora Xoshim qizi,**

*Xalqaro Nordik universiteti v.b. dotsenti,*

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

[Sita\\_bonu92@mail.ru](mailto:Sita_bonu92@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri bo‘lgan maqollarning she‘riyatda tutgan o‘rni, jumladan, Erkin Vohidov g‘azallarida maqollar yordamida yuzaga chiqqan badiiy san‘atlar haqida so‘z boradi. Maqollarni she‘rda keltirish irsoli masal va aqd deb nomlangan san‘atlarni yuzaga keltiradi. Shoirning devonida keltirilgan g‘azallar yordamida bu san‘atlarning go‘zal namunalariga misollar keltirilgan hamda baytlar tahlil etilgan. Irsoli masal baytda maqol keltirish bo‘lsa, aqd she‘riy san‘ati maqolning mazmunini saqlagan holda shaklan o‘zgartirib she‘rga kiritishdir.

**Kalit so‘zlar:** xalq og‘zaki ijodi, maqol janri, irsoli masal, aqd san‘ati, an‘ana, oshiqlik tasviri.

**Abstract:** This article discusses the role of proverbs, one of the genres of folk oral art, in poetry, including the artistic arts that emerged with the help of proverbs in Erkin Vohidov's ghazals. The presentation of proverbs in poetry creates the arts called irsoli masal and aqd. Using the ghazals presented in the poet's divan, examples of beautiful examples of these arts are presented and the verses are analyzed. While irsoli masal is the presentation of a proverb in a verse, the poetic art of aqd is the introduction of the proverb into a poem, changing its form while preserving its content.

**Keywords:** oral folklore, proverb genre, proverb with a message, art of aqd, tradition, depiction of love.

Xalq og‘zaki ijodi adabiyotning eng qadimiy shakli sifatida ko‘p asrlik tarixga ega. Folklor namunalari yozma adabiyotga o‘z ta‘sirini o‘tkazar ekan, bu bilan yozma adabiyot ham yanada sayqallanib boradi. She‘riyatga xalq og‘zaki

ijodi namunalaridan maqol, naql kabi janrlar kirib kelishi turli xil badiiy san'atlarni yuzaga chiqaradi. Irsoli masal, aqd kabi tasviriy vositalar shular jumlasidandir. She'riyat ilmining bir tarmog'i bo'lmish ilmi bade'ga doir ma'lumotlar adabiyot nazariyasiga oid manbalarda ko'plab uchraydi. Turkiy tilda yaratilgan dastlabki adabiyot nazariyasiga oid manba – Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog'a” asarida irsoli masal san'ati haqida quyidagicha ma'lumot keltirilgan: “Al-irsolul masal, bu ul bo'lurkim, she'r ichinda masal keltirurlar. Bu ikki qism bo'lur. Bir qismi ulkim, aningdek masal keltirurlarkim, ul masali jadimiy bo'lgay va xalq arosinda mashhur bo'lg'ay... Va yana bir qismi aningtek bo'lurkim, shoir o'z so'zini munosib bir masali badehda rost qilur”[Toroziy, 1996: 102].

Ushbu ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki, irsoli masal san'ati nihoyatda qadimiy tarixga ega bo'lgan badiiy tasvir vositalariga mansub.

Mumtoz adabiy an'analarni o'z ijodida qayta jonlantira olgan shoirlarimizdan Erkin Vohidovning g'azallari o'zga xos ohangi, badiiy saviyasi, qolaversda, mumtoz adabiyot nafasi ufurib turgan topilmalari bilan ajralib turadi. Bu g'azallarni tahlil va tadqiq etish asnosida shuni kuzatdikki, Erkin Vohidov g'azallarida irsoli masal nomli san'atning ahamiyati beqiyos. Irsoli masal san'ati bilan aqd san'ati ko'pincha yonma-yon holda keladi. Aqd san'ati haqida nazariy manbalarda quyidagicha ma'lumotlar bor: “Aqd mushtarak (ham lafzga, ham ma'noga daxldor) san'atlar jumlasidan. Nasrni nazmga aylantirish san'ati aqd deyiladi. “Aqd lug'atta tugun bog'lamoqdur. Nazmda kalomning nasrda bo'lmagan tugunligi bor bo'lgani uchun sochma kalomni tizma qilmoqni aqd deb ataganlar” (Atoulloh). Shoirlar ko'pincha maqolning mazmunini muayyan maqsad (fikrni dalillash, o'xshatish va h.k.) bilan she'rga olib kiradilar. Maqolning mazmuni sezilib tursa-da, uning shakli she'riy vazn talablariga moslashgan holda yangicha qiyofa kasb etadi, aniqrog'i u she'rga aylanadi”[Is'hoqov, 2006: 13]. Ko'rinib turganidek, aqd san'ati ham xalq og'zaki ijodining maqol janriga bog'liq bo'lgan tasviriy vositalardan sanaladi. Quyida Erkin Vohidov g'azallarida irsoli masal va aqd san'atlarining shoir g'oyalarini ifodalashdagi o'rni haqida to'xtalamiz.

“Yoshlik devoni”ni varaqlar ekanmiz, bu g‘azallarda ishq, oshiqlik, dard chekish asosiy planda tasvirlanganini kuzatamiz. Oshiqning dardli kechinmalarini ifodalash asnosida shoir baytlar mazmuniga go‘zal san’atlarni joylaganini ko‘ramiz. “Yo‘q emish orzuda ayb” nomli g‘azalda oshiqlikning ayb emasligi, bu ko‘ngilga taqdiri azal tomonidan yo‘llangan qismat ekanligi haqida mulohaza yuritgan lirik qahramon g‘azalni go‘zal xotima bilan yakunlaydi:

Sen-ku Zuhrosan falakda,

Intizoringman faqat

Ne ajab tolpinsa ko‘nglim,

Yo‘q emish orzuda ayb[Vohidov, 1969: 21].

Ko‘kdagi Zuhroligingni, senga qo‘lim yetmasligini bilsam ham qalbim senga talpinaveradi, chunki orzuda ayb yo‘q degan maqol bejiz emas, degan g‘oya ilgari surilgan bu g‘azalda mumtoz g‘azallarimizdagi fidoyi oshiq timsoli mehr bilan chizilganining guvohi bo‘lamiz. Yuqoridagi baytda irsoli masal san’ati qo‘llanganini ko‘rdik. Shoirning ayrim g‘azallari borki, ularda xalq maqollari she’riy vaziyatdan kelib chiqqan holda olib kirilgan. Ya’ni aqd san’ati asosida maqol mazmuni saqlanib, shakli she’rga moslashtirilgan. Shoirning “Senga baxtdan taxt tilarman” nomli g‘azalida aqd san’ati yuzaga chiqqan va bu san’at vositasida ishq tarkini odat aylamagan oshiqning holati hamda ma’shuqaning oshiqqa sitam o‘tkazishi an’anaviy timsollar yordamida she’rga olib kirilgan. Ushbu g‘azal shunday yakunlanadi:

Ko‘p nasihat tinglab Erkin

Qilmadi hech tarki ishq,

Bor masalkim, ish yurishmas,

Sohibi gar bo‘lsa koj. [Vohidov, 1969: 36]

Nodiraning “Sen g‘aniysan, menda bisyor ehtiyoj” satrlari epigraf sifatida keltirilgan mazkur g‘azalning maqta’si pand-nasihatlariga qaramasdan ishqdan voz kechmaydigan, oshiqlikni sharaf deb biladigan inson ruhiyatining ifodalanishi jihatidan ahamiyatlidir. Xalq orasida “Eshagiga yarasha tushovi” mazmunidagi maqol bor. Shuningdek, egasi injiq bo‘lsa, o‘sha odam bilan bog‘liq ishning

yurishishi ham qiyin kechishini ifodalash uchun muallif “ish yurishmas, sohibi gar bo‘lsa koj” degan masalni keltirib o‘tadi. Yuqoridagi baytda aqd va irsoli masal san’atlari bir-biri bilan bog‘liq tarzda obrazlarni, g‘oyani ta’sirchanroq ifodalashga xizmat qilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Shoirning “Shirin” deb nomlangan g‘azali mavzu-mundarijasiga ko‘ra, Zahiriddin Muhammad Boburning “Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbat” g‘azaliga hamohang tarzda hayotsevarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. G‘azalda dilkusho do‘stlar-u dilrabo yor bilan birga kechgan suhbat, tabiatning inson ko‘ngliga jilva solgan manzaralari madh etilar ekan, shoir har kimning o‘z qarashi mavjud ekanligini quyidagi baytda fodalaydi:

Bu jahonda deydilar,

Har kimda bor bir o‘zga ta’b,

Menga may, bulbulga tong,

Gul bargida shabnam shirin. [Vohidov, 1969: 69]

Bu baytda “Hamma dunyoni o‘z qarichi bilan o‘lchaydi”, degan maqol nazmga moslashtirilgan holatda qo‘llangan. Aqd san’atining namunasi bo‘lgan mazkur misralarda ta’did badiiy san’atini ham kuzatishimiz mumkin. Nazariy manbalardan ma’lumki, ta’did san’ati she’rda so‘zlarni sanash ohangi bilan keltirish yo‘lidir. Mazkur baytda “menga may, bulbulga tong, gul bargida shabnam” so‘zlari sanash ohangida murattab qilinmoqda va natijada ta’did badiiy san’ati yuzaga kelmoqda.

Shu tariqa, “Yoshlik devoni”ni varaqlar ekanmiz, bir-biridan go‘zal badiiy san’atlarga duch kelamiz. “Oyning o‘n beshi qorong‘u” nomli g‘azal umidbaxsh sadolarni o‘zida jamlashi bilan birgalikda, irsoli masal san’ati shoirning badiiy niyatini ochishga xizmat qilishi bilan ham e’tiborlidir:

“Umrini oshiq hamisha

O‘tkazur orzu bilan”,

Oyning o‘n beshi qorong‘u,

O‘n beshi yog‘du bilan. [Vohidov, 1969: 87]

Bu g‘azalda aqddan ham mohirlik bilan foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin:

Zahmati ishq dard erursa

Zahmati she'rdir davvo,

Chunki og'uning shifosi,

Deydilar og'u bilan. [Vohidov, 1969: 87]

Xalq orasida "Achchiqni achchiq kesar", degan maqol bor. Yuqorida ayni shu maqolni shoir o'z she'riga moslagan holatda qo'llamoqda. Ishq iztiroblari og'riq bersa, uning davosi yana bir qiynalish – she'r yozishdagi azoblanishdir, chunki og'uning shifosi og'u bo'ladi. O'zbekona lutf bilan sug'orilgan bu g'azal ham o'quvchi qalbidan joy olib kelmoqda.

Shoirning "Masal borkim..." deb nomlangan besh baytli g'azali har bir baytda maqol qo'llangani bilan ahamiyatlidir. G'azal mavzusi an'anaviy bo'lib oshiqning ishqiy iztiroblari, kechinmalarini o'zida aks ettiradi. Mazkur g'azalda maqollar quyidagi tarzda badiiy ifodasini topganini kuzatamiz:

"Og'zi oshga yetganda, burni qonadi." – Masal borkim, og'iz oshga,

Burun toshga tegibdir, voh!

"O'zgaga kulguncha, o'z aybingni bil." – Degaylar: o'zgin kulma,

O'zingdan bo'lmayin ogoh.

"Birovga choh qazigan o'zi tushar." – O'zi tushgay emish oxir

Birovga kimki qazgay choh. [Vohidov, 1969: 129]

Ko'rinib turibdiki, muallif xalq maqollarini badiiy sayqallagan holda she'rga olib kirmoqda va natijada irsoli masal hamda aqd san'atlari shoirning badiiy g'oyalarini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi fikrlar asosida quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin bo'ladi:

1. Xalq og'zaki ijodi janrlari yozma adabiyotning ham oziqlanish manbai hisoblanadi. Shu bois ham irsoli masal, aqd kabi badiiy san'atlar yuzaga kelgan.

2. Erkin Vohidov salafllari an'alarining munosib davomchisi sifatida mazkur badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalangan. Shoirning baytlaridagi ma'nolar xalq maqollari yordamida yanada teran anglanadi.

3. Muallifning “Masal borkim...” g‘azalining har bir baytida maqol qo‘llangani mumtoz adabiyotimiz vakili Mavlono Lutfiyning mashhur “Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu” deb boshlanadigan g‘azaliga hamohang tarzda yaratilgan.

4. Har bir badiiy san‘at shoirning o‘z hissiyotini tasvirlash vositasi o‘laroq she‘rga kiritiladi. Erkin Vohidov irsoli masal va aqd san‘atlaridan oshiq holatini hamda ma‘shuqaning serjafoligini tasvirlash asnosida foydalangan va go‘zal baytlar yaratgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Muratova, A. K. (2023). “MAORIF VA O‘QUTG‘UCHI” JURNALIDA ZAMONDOSH ADIBLAR IJODINING TALQINI. GOLDEN BRAIN, 1(9), 115-121.

2. Muratova, A. K. (2022). Muratova Aziza Kamilovna Mirzo Ulug‘bek. RESEARCH AND EDUCATION, 1(1), 193-200.

3. Shomurodova, S. (2024). Zamonaviy o‘zbek shoirlarining devonlarida vazn masalasi (aruz vazni bo‘yicha). Nordic\_Press, 1(0001).

4. Sherzodjon o‘g‘li, H. U. (2024). THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE DEVELOPMENT OF THE EXPORT POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Лучшие интеллектуальные исследования, 28(1), 62-69.

5. Sherzodjon o‘g‘li, H. U. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF CHINA’S “ONE BELT-ONE ROAD” PROJECT AND THE IMPORTANCE OF UZBEKISTAN’S PARTICIPATION. Modern education and development, 9(1), 77-86.

6. Sherzodjon o‘g‘li, H. U. (2024). POSSIBILITIES OF USING CHINESE EXPERIENCE IN COMBATING POVERTY IN UZBEKISTAN. Ta‘lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 28(1), 52-58.

7. Sherzodjon o‘g‘li, H. U. (2024). IMPACT OF WORLD BANK PROJECTS ON THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY’S INDUSTRY. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 52(3), 9-14.

8. Sultani, G., & Usmonjon, H. (2024). STAGES OF INTEGRATION OF THE EDUCATIONAL SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF GLOBALIZATION. EDUCATION AND ECONOMY. MASTERS, 2(9), 74-79.

9. Parwoni, M., & Usmonjon, H. (2024). ISLAMIC FINANCE AND ITS IMPACT ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(32), 242-245.

10.Shomurodova, S. (2024). Erkin Vohidov qasidalarining maktab ta'limidagi ahamiyati: Erkin Vohidov qasidalarining maktab ta'limidagi ahamiyati. Nordic\_Press, 1(0001).

11.Шомуродова, С. Х. (2020). ЭРКИН ВОҲИДОВ ҲАЗАЛЛАРИДА ТАЛМЕҲ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(5).

12.Mirshadmanovna, X. Z., & Qizi, Q. M. M. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIGA PREDMETLARARO INTEGRATSIYA VOSITASIDA METAPREDMET TUSHUNCHALARINI O 'RGATISH. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 658-663.

13.Obidjon o'g'li, Y. O. (2024). MATN TAHLILIDA TERMINOLOGIYA MASALASI. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 79-82.

14.Миралиева, Д. (2022). “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ” НИНГ ЁШЛАР ОНГИГА САЛБИЙ ОҚИБАТЛАРИ. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(2), 301-306.